

TIBBIYOT

TA'LIMI & INNOVATSIYALARI



U.S. National Library of Medicine
National Institutes of Health

Advancing Health
Through Knowledge



№8-SON

- 14.00.00 - Tibbiyot fanlari;
- 14.00.01 - Akusherlik va ginekologiya;
- 14.00.02 - Morfologiya;
- 14.00.03 - Endokrinologiya;
- 14.00.04 - Otorinolaringologiya;
- 14.00.05 - Ichki kasalliklar;
- 14.00.06 - Kardiologiya;
- 14.00.07 - Gigiena;
- 14.00.08 - Oftal'mologiya;
- 14.00.09 - Pediatriya;
- 14.00.10 - Yuqumli kasalliklar;
- 14.00.11 - Dermatologiya va venerologiya;
- 14.00.12 - Tibbiy rehabilitologiya;
- 14.00.13 - Nevrologiya;
- 14.00.14 - Onkologiya;
- 14.00.15 - Patologik anatomiya;
- 14.00.16 - Normal va patologik fiziologiya;
- 14.00.17 - Farmakologiya va klinik farmakologiya;
- 14.00.18 - Psixiatriya va narkologiya;
- 14.00.19 - Klinik radiologiya;
- 14.00.20 - Tibbiy genetika;
- 14.00.21 - Stomatologiya;
- 14.00.22 - Travmatologiya va ortopediya;
- 14.00.23 - Hamshiralik ishini tashkil etish;
- 14.00.24 - Sud tibbiyoti;
- 14.00.27 - Xirurgiya;
- 14.00.28 - Neyroxirurgiya;
- 14.00.41 - Xalq tabobati;
- 14.00.35 - Bolalar xirurgiyasi;
- 14.00.34 - Yurak-qon tomir xirurgiyasi



2026-yil, avgust





tibbiyot-talimi-va-innovatsiyalari.uz



https://t.me/tibbbiyot_2100



Litsenziya raqami: №745444



Tahrir hay'ati a'zolari:



BOSH MUHARRIR:

Shuhrat Baymuradov Abdusalilovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Iminov Komiljon Odiljonovich
tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

“Tibbiyot ta'limi va innovatsiyalari” ilmiy elektron jurnali 29.04.2025-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669801 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami: №745444.

Tahrir hay'ati a'zolari:



Sharipov Kongratbay Avezimbetovich
Texnika fanlari doktori (DSc), professor



Ishanqulov Artiqboy Eshboyevich
Biologiya fanlari doktori (DSc), professor



Otamuradov Furqat Abdukarimovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent.



Shuxrat Jumayevich Teshayev
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Oral Aminovna Ataniyazova
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Jalolova Feruza Maxamatjanovna
Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (DSc), dotsent



Uraqov Shokir Ulashovich
tibbiyot fanlari doktori doktori (DSc)

"TIBBIYOT TA'LIMI VA
INNOVATSIYALARI"
ilmiy elektron jurnali O'zbekiston
Respublikasi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
(AOKA) tomonidan 2024-yil
9-oktabrdan boshlab
c-5669651 raqami ostida rasmiy
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Murojaat uchun telefon:
+998 97 748 70 03
Email: @munis_sm



MUNDARIJA

TOSHKENT XALQARO MOLIYA MARKAZI VA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: YANGI QONUNNING AHAMIYATI	12
Shuhrat Boymurotov	
IMPROVEMENT OF THE SURGICAL APPROACH TO THE TREATMENT OF CRANIOVERTEBRAL JUNCTION ANOMALIES ASSOCIATED WITH SPINAL MALFORMATIONS (CLINICAL EXPERIENCE)	17
Arzikulov Sh.T., Ismailova R.O., Jabborov N.I.	
ARTERIAL GIPERTENZIYA VA 2 TIP QANDLI DIABET: PATOGENETIK BOG'LIQLIKLAR VA GENETIK PREDISPOZITSIYA	25
Ellamonov Suxrobjon No'mon o'g'li	
BOLALARDA PSORIAZNING KLINIK-BIOKIMYOVIY, IMMUNOPATOGENETIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA KOMPLEKS DIAGNOSTIKA VA TERAPIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xaitov Kaxramon Najmitdinovich, Abidov Xasanxodja Alisherovich, Maxkamova Muxlisa Farxadovna	
GLUTEN BILAN BOG'LIQ SALOMATLIK XAVFLARI VA OZIQ-OVQAT NAZORATINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI: TANQIDIY ADABIYOTLAR SHARHI.....	48
Abdullaeva Dilafruz G'ayratovna, Razikov Farrux Ibragim o'g'li, Abdullaeva Dilafruz G'ayratovna	
SLEEP AND CIRCADIAN RHYTHMS IN RELATION TO ANDROGEN STATUS IN MIDDLE-AGED MEN: CURRENT EVIDENCE AND CLINICAL IMPLICATIONS.....	58
Feruza Lyutpillayevna Azizova, Abdukhalim Kholiddin ugli Abdurakhimov	
BOLALARDAGI NEYROGEN DEFORMATSIYALARNING UMUMIY KLINIK TAVSIFI VA ULARNI KELTIRIB CHIQRUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	66
Xalimov Ravshan Jurabayevich	
KESARCHA KESISHDAN KEYINGI UZOQ MUDDATLI ASORATLAR VA REABILITATSIYA STRATEGIYALARI (ADABIYOTLAR SHARHI)	70
Atayeva Farzona Nuriddinovna	
KATTALARDA MODIFIKATSIYALANGAN INTRAMEDULLYAR VINTLAR YORDAMIDA KAFT SUYAKLARI SINIQLARINI KAM INVAZIV OSTEOSINTEZ QILISH	75
Xudoyorov Farhod Rustamovich	
CLINICAL AND PROGNOSTIC FACTORS OF FUNCTIONAL RECOVERY IN PATIENTS WITH HEMORRHAGIC STROKE	80
Gulchekhra Erkinovna Usmanova, Rakhimbaeva Gulnara Sattarovna	
УСОВЕРШЕНСТВОВАННАЯ МЕТОДИКА ДИНАМИЧЕСКОЙ АНГИОНЕФРОСЦИНТИГРАФИИ ДЛЯ РАСШИРЕННОЙ КОЛИЧЕСТВЕННОЙ ОЦЕНКИ ФУНКЦИИ ПОЧЕК.....	85
Хикматов Акром Азимджанович	
ОБЩИЕ ПОКАЗАТЕЛИ АДАПТАЦИИ СРЕДИ ИНОСТРАННЫХ И МЕСТНЫХ СТУДЕНТОВ	90
Калим Мухаммад Раза	
КОМПЛЕКСНЫЙ АЛГОРИТМ МЕДИКО-СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ БОЛЬНЫМ ТУБЕРКУЛЕЗОМ КОСТЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ СРЕДСТВ МЕСТНОЙ ТЕРАПИИ	95
Тимур Зафарович Абдуллаев	



TAJIRIBAVIY ALKOGOL INTOKSIKATSIYASI TA'SIRIDA UCH OYLIK KALAMUSHLAR OSHQOZON OSTI BEZINING MORFOLOGIK O'ZGARISHLARI	100
Axmatov Azizbek Avaz o'g'li, Rajabov Axtam Boltabayevich	
FERTIL YOSHDAGI AYOLLARDA MIGREN NING KLINIK-NEVROLOGIK XUSUSIYATLARI	104
Qudratova Nigora Burxonovna, Kamalova Malika Ilhomovna	
МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ПРИ ДОЛИХОСИГМЕ В РАЗНЫХ ВОЗРАСТНЫХ ПЕРИОДАХ У ДЕТЕЙ	108
Исраилов Махамадсодик Солиевич, Камалова Малика Илхомовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA 2017–2026 YILLARDA POSTASFIKTIK HOLATLARNING DINAMIKASI VA UMUMIY EPIDEMIOLOGIK TAVSIFI	113
Xakimov Sarvar Abduazimovich, Kamalova Malika Ilxamovna	
OIV INFEKSIYASINING GIYOHVAND MODDALARGA TOBELIK BILAN KOMORBID KECHISHIDA VIROSOLOGIK-IMMUNOLOGIK KO'RSATKICHLARNING XUSUSIYATLARI	119
Kenjayeva Nargiza Quvatovna	

UO'K: [613.81/613.84](#)+612.345

TAJIRIBAVIY ALKOGOL INTOKSIKATSIYASI TA'SIRIDA UCH OYLIK KALAMUSHLAR OSHQOZON OSTI BEZINING MORFOLOGIK O'ZGARISHLARI

TIBBIYOT / MEDICINE / МЕДИЦИНА

**Axmatov Azizbek Avaz o'g'li**

Buxoro davlat tibbiyot instituti anatomiya,
klinik anatomiya kafedrası mustaqil izlanuvchisi
[ORCID: 0009-0007-2031-7506](#)

**Rajabov Axtam Boltabayevich**

Buxoro davlat tibbiyot instituti anatomiya,
klinik anatomiya kafedrası mudiri, DSc
[ORCID: 0000-0003-2945-8560](#)

Annotatsiya: Morfometrik tahlil natijalari atsinar tuzilmalarning diametri va maydonining kamayganini, ekzokrinotsitlar sitoplazmasi maydonining qisqarganini va yadro-sitoplazma nisbatning ortganini ko'rsatdi. Gistologik tahlilda sitoplazmaning vakuolizatsiyasi, zimogen granulalar sonining kamayishi, atsinar apparati arxitektonikasining qisman buzilishi, bo'lakchalararo va periatsinar biriktiruvchi to'qima elementlari sonining ko'payishi, shuningdek, kollagen tolalarining qalinlashishi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar alkogol ta'sirida oshqozon osti bezining ekzokrin qismida distrofik va qayta qurilish jarayonlarining rivojlanishini ko'rsatadi, bu esa tajribaviy patofiziologiya va toksik ta'sirlarni morfologik baholash uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: oshqozon osti bezi, alkogol intoksikatsiyasi, atsinar apparati, morfologiya, morfometriya, ekzokrinotsitlar.

Abstract: The results of the morphometric analysis showed a decrease in the diameter and area of acinar structures, a reduction in the cytoplasmic area of exocrinocytes, and an increase in the nucleus-to-cytoplasm ratio. Histological analysis revealed cytoplasmic vacuolization, a decrease in the number of zymogen granules, partial disruption of the architectonics of the acinar apparatus, an increase in the number of interlobular and peri-acinar connective tissue elements, as well as thickening of collagen fibers. The obtained data indicate the development of dystrophic and remodeling processes in the exocrine part of the pancreas under the influence of alcohol, which is of significant importance for experimental pathophysiology and the morphological assessment of toxic effects.

Key words: pancreas, alcohol intoxication, acinar apparatus, morphology, morphometry, exocrinocytes.



Аннотация: Результаты морфометрического анализа показали уменьшение диаметра и площади ацинарных структур, сокращение площади цитоплазмы экзокриноцитов и увеличение ядерно-цитоплазматического отношения. При гистологическом анализе выявлены вакуолизация цитоплазмы, уменьшение количества зимогенных гранул, частичное нарушение архитектоники ацинарного аппарата, увеличение количества элементов междольковой и периацинарной соединительной ткани, а также утолщение коллагеновых волокон. Полученные данные указывают на развитие дистрофических и процессов перестройки в экзокринной части поджелудочной железы под воздействием алкоголя, что имеет важное значение для экспериментальной патофизиологии и морфологической оценки токсических воздействий.

Ключевые слова: поджелудочная железа, алкогольная интоксикация, ацинарный аппарат, морфология, морфометрия, экзокриноциты.

KIRISH

Oshqozon osti bezi inson va hayvonlar organizmida muhim fiziologik vazifalarni bajaradigan aralash sekretor bez hisoblanadi. U morfologik va funksional jihatdan ekzokrin va endokrin qismlardan tashkil topgan. Bezning asosiy qismi bo'lgan ekzokrin bo'lim atsinar tuzilmalardan iborat bo'lib, ular hazm jarayonida ishtirok etuvchi fermentlarni sintez qiladi va tashqi sekretor faoliyatni ta'minlaydi. Ushbu fermentlar ovqat moddalarining parchalanishida muhim ahamiyat kasb etadi va hazm tizimining normal faoliyatini ta'minlashda ishtirok etadi [1, 6, 11]. Zamonaviy morfologik tadqiqotlarda oshqozon osti bezi tuzilishining mikroskopik xususiyatlarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, atsinar apparatning morfometrik parametrlarini tahlil qilish organing funksional holatini baholashda muhim ahamiyatga ega. Atsinus tarkibiga kiruvchi ekzokrinotsitlar zimogen granulalarga boy bo'lib, ular hazm fermentlarining sintezi va sekretsijasida asosiy rolni bajaradi. Shu sababli ushbu hujayralarning morfologik holati bezning sekretor faoliyati bilan bevosita bog'liq hisoblanadi [1, 10].

So'nggi yillarda oshqozon osti bezi patologiyalarining patogenezi va morfologik xususiyatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy ishlar soni ortib bormoqda. Ayniqsa, tashqi zararli omillar, jumladan, alkogol ta'siri natijasida rivojlanadigan morfologik o'zgarishlar alohida qiziqish uyg'otmoqda. Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, alkogol va uning metabolitlari bez to'qimasiga toksik ta'sir ko'rsatib, atsinar hujayralarda distrofik va degenerativ o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin [2, 9, 15]. Bu holat hujayra membranalari, ferment tizimlari hamda mitoxondriya faoliyatining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, natijada atsinar hujayralarning morfologik tuzilishida turli o'zgarishlar kuzatiladi [13]. Alkogol intoksikatsiyasi sharoitida oshqozon osti bezi parenximasida atsinar hujayralar distrofiyasi, stromal elementlarning nisbatan ko'payishi va fibroz jarayonlarining rivojlanishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Ushbu morfologik o'zgarishlar keyinchalik surunkali pankreatit kabi kasalliklarning shakllanishiga olib kelishi mumkin [3, 16]. Shu nuqtayi nazardan, alkogol ta'sirida bez to'qimasida yuzaga keladigan morfologik va morfometrik o'zgarishlarni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy tibbiyot uchun ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi [12]. Shu munosabat bilan eksperimental alkogol intoksikatsiyasi sharoitida oshqozon osti bezining morfologik holatini kompleks o'rganish, ayniqsa, atsinar apparat morfometrik ko'rsatkichlarida yuzaga keladigan o'zgarishlarni tahlil qilish zamonaviy morfologiya va eksperimental tibbiyotning muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda ham alkogol ta'siri natijasida atsinar hujayralarda mitoxondriya faoliyatining buzilishi, oksidativ stressning kuchayishi va ferment sekretsijasida o'zgarishlar rivojlanishi qayd etilgan [14, 18]. Van-Gizon bo'yog'i bilan olingan natijalarda interlobulyar va periatsinar biriktiruvchi to'qima komponentlarining ko'payishi hamda kollagen tolalarining qalinlashishi aniqlandi. Bu holatlar oshqozon osti bezi stromasida fibroz jarayonlarining shakllana boshlaganligini ko'rsatadi. Ayrim tadqiqotlarda alkogol ta'sirida bez to'qimasida fibroz o'zgarishlar rivojlanishi keyinchalik surunkali pankreatitning patogenetik bosqichlaridan biri hisoblanishi ta'kidlangan [13, 19]. Shunday qilib, olingan morfologik va morfometrik ma'lumotlar eksperimental alkogol intoksikatsiyasi oshqozon osti bezi parenximasida distrofik-degenerativ jarayonlarni rivojlantirishini hamda stromal komponentlarning nisbatan ko'payishiga olib kelishini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Uch oylik oq zotsiz kalamushlarda tajribaviy alkogol intoksikatsiyasini modellashtirish orqali oshqozon osti bezining ekzokrin hamda endokrin qismlarida yuzaga keladigan morfologik va morfometrik o'zgarishlarni o'rganishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida og'irligi 210–300 gramm atrofida 30 ta oq zotsiz kalamush

tanlab olindi va ular ikki guruhga ajratildi: 1-nazorat guruhi ($n=15$); 2-eksperimental guruhi ($n=15$). Barcha ilmiy tadqiqot bosqichlari "Eksperiment yoki boshqa ilmiy maqsadlarda foydalaniladigan umurtqali hayvonlarni himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasi" (Directive 2010/63/EU) talablariga rioya qilingan holda amalga oshirildi. Tadqiqotda qatnashgan laboratoriya hayvonlari yoshi, vazni, saqlash va oziqlanish sharoitlari bo'yicha representativ hisoblandi. Nazorat va tajriba guruhlaridagi kalamushlar ozuqaga erkin kirish imkoniyatiga ega bo'lib, ularning ratsioni asosan don mahsulotlari va sabzavotlardan iborat bo'ldi. Eksperimental guruhda alkogol intoksikatsiyasi modelini yaratish maqsadida hayvonlarni majburiy alkogollash usuli qo'llanildi. Buning uchun 40 % etanol eritmasi qo'llanildi (Sidorov P.I., 2002). Eritma metall zond yordamida me'daga sutkasiga 1 marta, tana massasiga nisbatan 7 g/kg dozada 1 oy davomida yuborildi.

Bundan tashqari, eksperimental guruhlarda sun'iy polidipsiya usuli qo'llanildi: ichimlik suvi 5 % etanol eritmasi bilan almashtirildi (Knyshova L.P., 2016). Ushbu eritma saxaroza (100 ml 5 % etanolga 5 g shakar) qo'shib shirinlashtirildi. Hayvonlar tajriba yakunida ertalab och qoringa jonsizlantirildi, kalamushlar efir narkozida bir zumda dekapitatsiya qilish usuli bilan evtanaziya qilindi (Rybakova A.V., 2015; Koptayeva K.E., 2018). Olingan makropreparatlar gematoksilin-eozin va Van-Gizon bo'yoqlari yordamida bo'yaldi. Morfometrik tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Etik qo'mitasining 21.09.2020-yildagi № 4/17-1442 xulosasi asosida amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazorat guruhidagi 3 oylik kalamushlar oshqozon osti bezining atsinar apparati morfometrik parametrlari fiziologik me'yoriy darajada ekani aniqlandi. Atsinuslar tuzilishi to'liq saqlangani, ularning bez parenximasida zich va tartibli joylashgani kuzatildi. Morfometrik tahlil natijalariga ko'ra, atsinuslarning o'rtacha diametri $31,2 \pm 0,7$ mkm, atsinus maydoni esa $960,0 \pm 35,5$ mkm² ni tashkil qildi. Ekzokrinotsitlar maydoni o'rtacha $130,0 \pm 6,0$ mkm², ularning yadro maydoni $20,2 \pm 0,8$ mkm², sitoplazma maydoni esa $110,0 \pm 5,0$ mkm² ga teng bo'ldi. Hujayralar uchun xarakterli bo'lgan yadro-sitoplazma nisbati $0,18 \pm 0,01$ darajasida qayd etildi. Bir atsinus tarkibida o'rtacha $7,2 \pm 0,2$ ta ekzokrinotsit mavjudligi aniqlandi. Intralobulyar chiqaruv naylari diametri o'rtacha $11,0 \pm 0,5$ mkm ni tashkil etdi. Gematoksilin-eozin usuli bilan bo'yalgan preparatlarda nazorat guruhida oshqozon osti bezi parenximasining gistoarxitektonikasi yaxshi saqlangani aniqlandi. Atsinar komplekslar bez to'qimasida zich joylashgan holda kuzatildi. Ekzokrinotsitlar sitoplazmasi eozinofil rangda bo'yilib, ularning bazal qismida bazofil zona aniq namoyon bo'ldi. Yadrolar asosan hujayraning bazal qismida joylashgan bo'lib, ko'pincha yumaloq shaklda qayd etildi. Van-Gizon bo'yog'i bilan bo'yalgan preparatlarni tahlil qilish natijasida nazorat guruhida bez stromasi yaxshi differentsiatsiyalangani aniqlandi. Biriktiruvchi to'qima elementlari asosan interlobulyar to'siqlar tarkibida joylashgan bo'lib, ularning miqdori kam va fiziologik holatga mos darajada ekani kuzatildi.

Eksperimental guruh kalamushlarida oshqozon osti bezi parenximasida morfometrik ko'rsatkichlarning ma'lum darajada o'zgarishi qayd etildi. Olingan natijalar atsinar tuzilmalarning qisman reduksiyaga uchraganligini ko'rsatdi. Atsinus diametri $27,4 \pm 0,8$ mkm gacha kamaygani, atsinus maydoni esa $810,0 \pm 32,0$ mkm² ni tashkil etgani aniqlandi. Ekzokrinotsitlar maydoni nazorat guruhiga nisbatan kamayib, o'rtacha $118,0 \pm 5,0$ mkm² ga teng bo'ldi. Yadro maydoni $21,5 \pm 0,9$ mkm² darajasida qayd etildi, bu esa yadro-sitoplazma nisbatining ma'lum darajada ortishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, sitoplazma maydoni $96,0 \pm 4,0$ mkm² gacha qisqargani kuzatildi. Natijada yadro-sitoplazma nisbati $0,22 \pm 0,02$ ga yetdi. Shu bilan birga, atsinus tarkibidagi ekzokrinotsitlar soni ham qisman kamayib, o'rtacha $6,5 \pm 0,2$ tani tashkil etdi. Intralobulyar chiqaruv naylari diametri esa biroz kengayib, $12,3 \pm 0,6$ mkm ga teng bo'ldi. Mazkur morfometrik o'zgarishlar alkogol intoksikatsiyasi ta'sirida oshqozon osti bezining ekzokrin qismida distrofik jarayonlar rivojlanayotganligini ko'rsatdi. Eksperimental guruh preparatlari gematoksilin-eozin bo'yog'i bilan bo'yalganda atsinar tuzilmalarning ayrim sohalarida dezorganizatsiya belgilari kuzatildi. Ekzokrinotsitlar sitoplazmasida vakuolizatsiya elementlari, zimogen granular miqdorining kamayishi hamda hujayra chegaralarining noaniqlashishi qayd etildi. Ayrim hujayralarda yadro shaklining deformatsiyasi va xromatinning kondensatsiyalanishi aniqlandi. Ushbu belgilar alkogol intoksikatsiyasi sharoitida hujayralarda distrofik o'zgarishlar rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

Van-Gizon bo'yog'i bilan bo'yalgan eksperimental guruh preparatlarida interlobulyar va periatsinar biriktiruvchi to'qima komponentlarining nisbatan ko'payishi kuzatildi, kollagen tolalarining ma'lum darajada qalinlashgani va ayrim atsinar strukturalar atrofida fibroz elementlarning shakllana boshlagani qayd etildi. Bu holatlar alkogol ta'sirida oshqozon osti bezi stromasida qayta qurilish jarayonlari boshlanganligini ko'rsatadi. Olingan tadqiqot natijalari tajribaviy alkogol intoksikatsiyasi sharoitida oshqozon osti bezi to'qimasida morfologik qayta qurilish jarayonlari rivojlanishini ko'rsatdi. Eksperimental guruhda atsinar tuzilmalar diametri va maydonining kamayishi, ekzokrinotsitlar sitoplazmasi hajmining qisqarishi hamda yadro-sitoplazma nisbatining ortishi kabi morfometrik o'zgarishlar qayd etildi. Bu holatlar bezning ekzokrin qismida funksional faoliyatning pasayishi va hujayralarda distrofik jarayonlar rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Ekzokrinotsitlar sitoplazmasida vakuolizatsiya elementlari, zimogen granular miqdorining kamayishi hamda ayrim hujayralarda yadro deformatsiyasi



kuzatildi. Bunday morfologik belgilar alkogol va uning metabolitlarining hujayra membranalari hamda ferment tizimlariga toksik ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi [12, 17].

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tajribaviy alkogol intoksikatsiyasi sharoitida 3 oylik kalamushlar oshqozon osti bezi to'qimasida muayyan morfologik va morfometrik o'zgarishlar yuzaga keladi. Eksperimental guruhda atsinar apparat tuzilmasida qisman reduksiya belgilari qayd etilib, atsinuslar diametri va maydonining kamayishi, ekzokrinotsitlar sitoplazmasi hajmining qisqarishi hamda yadro-sitoplazma nisbatining oshishi aniqlandi. Ushbu holatlar bezning ekzokrin qismida funksional faoliyat pasayishi va hujayralarda distrofik jarayonlar rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqot natijalari tajribaviy alkogol intoksikatsiyasi oshqozon osti bezining morfofunksional holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, atsinar apparatda distrofik-degenerativ o'zgarishlar hamda stromal qayta qurilish jarayonlarini rivojlantirishini ko'rsatdi. Olingan morfologik va morfometrik ma'lumotlar alkogol ta'sirida oshqozon osti bezi to'qimasida rivojlanadigan patologik jarayonlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida ushbu organ patologiyalarining patogenezi yanada chuqur o'rganish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Афанасьев Ю. И., Юрина Н. А., Котовский Е. Ф. Гистология, эмбриология, цитология. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2018. — 800 с.
2. Гриневиц В. Б., Майоров А. Ю. Патология поджелудочной железы. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2020. — 352 с.
3. Западнюк В. И. К вопросу о возрастной периодизации лабораторных животных // Старение клетки. — Киев, 1971. — С. 433–438.
4. Кнышьева Л. П. и др. Критерии достоверности воспроизведения экспериментальной модели хронической алкогольной интоксикации // Волгоградский научно-медицинский журнал. — 2016. — № 4. — С. 48–51.
5. Коптяева К. Е., Мужикян А. А., Гущин Я. А., Беляева Е. В., Макарова М. Н., Макаров В. Г. Методика вскрытия и извлечения органов лабораторных животных // Сообщение 1: крыса. Лабораторные животные для научных исследований. — 2018. — № 2. — С. 71–92.
6. Кузнецов С. Л., Мушамбаров Н. Н., Горячкина В. Л. Гистология, цитология и эмбриология. — М.: Медицинское информационное агентство, 2021. — 640 с.
7. Рыбакова А. В. Методы эвтаназии лабораторных животных в соответствии с европейской директивой 2010/63 / А. В. Рыбакова, М. Н. Макарова // Международный вестник ветеринарии. — 2015. — № 2. — С. 96–107.
8. Сидоров П. И. Использование лабораторных животных в токсикологическом эксперименте: методические рекомендации. — Архангельск, 2002. — 15 с.
9. Ткаченко Е. И., Успенский Ю. П. Заболевания поджелудочной железы. — СПб.: СпецЛит, 2017. — 288 с.
10. Хэм А., Кормак Д. Гистология. — М.: Мир, 2017. — 720 с.
11. Bancroft J. D., Gamble M. Theory and Practice of Histological Techniques. — 8th ed. — London: Elsevier, 2019. — 638 p.
12. Braganza J. M., Lee S. H., McCloy R. F., McMahon M. J. Chronic pancreatitis // Lancet. — 2018. — Vol. 377. — P. 1184–1197.
13. Hall J. E., Guyton A. C. Textbook of Medical Physiology. — 14th ed. — Philadelphia: Elsevier, 2021. — 1120 p.
14. Kleeff J., Whitcomb D. C., Shimosegawa T. Chronic pancreatitis // Nature Reviews Disease Primers. — 2017. — Vol. 3. — P. 17060.
15. Mescher A. L. Junqueira's Basic Histology: Text and Atlas. — 16th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2021. — 480 p.
16. Pandol S. J. The Exocrine Pancreas. — San Rafael: Morgan & Claypool Life Sciences, 2018. — 112 p.
17. Salaspuro M. Acetaldehyde, microbes, and cancer of the digestive tract // Critical Reviews in Clinical Laboratory Sciences. — 2017. — Vol. 40. — P. 183–208.
18. Wang G. J., Gao C. F., Wei D. Chronic pancreatitis: pathogenesis and treatment // World Journal of Gastroenterology. — 2019. — Vol. 15. — P. 4731–4744.
19. Yadav D., Lowenfels A. B. The epidemiology of pancreatitis and pancreatic cancer // Gastroenterology. — 2018. — Vol. 144. — P. 1252–1261.

TIBBIYOT

TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

2026. № 8

Muharrir: Sherzod Qurbonov

Mas'ul kotib: Surmaniso Mirzaliyeva

Dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Tibbiyot ta'limi va innovatsiyalari" ilmi elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @munis_sm

Tel.: 97 748 70 03





Google
scholar

